



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/7



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 7-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 7 - SON
2026

Google Scholar



ADVANCED SCIENCE INDEX



Academic
Resource
Index
ResearchBib

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



MAXSUS VOSITALARNI QO‘LLASHDA XAVFNI KAMAYTIRISH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA (REZINA TAYOQ, QO‘L KISHANI VA ELEKTROSHOK QURILMASI MISOLIDA)

Djurabayev Rustam Turabbayevich

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Jangovar tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, dotsent

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada maxsus vositalarni qo‘llash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar hamda ularni kamaytirish choralari xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda rezina tayoq, qo‘l kishanlari va elektroshok qurilmasi misolida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan maxsus vositalarni qo‘llashning zarurati, mutanosibligi va qonuniyligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, maxsus vositalarni qo‘llashda “xavf va uni kamaytirish choralari” tushunchalari bilan “xavfsizlik choralari” o‘rtasidagi farqlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: maxsus vositalar, xavf va xavfni kamaytirish choralari, xavfsizlik choralari, rezina tayoq, qo‘l kishanlari, elektroshok qurilmasi, ichki ishlar organlari, xalqaro tajriba.

Abstract. This scientific article analyzes the risks arising from the use of special means and measures to reduce them based on international experience. Using the examples of a rubber baton, handcuffs, and an electroshock device, the study examines the issues of necessity, proportionality, and legality in the use of special means by law enforcement officers. In addition, the article scientifically substantiates the differences between the concepts of “risks and risk-reduction measures” and “safety measures” in the application of special means.

Keywords: special means, risks and risk reduction measures, safety measures, rubber baton, handcuffs, electroshock device, law enforcement agencies, international experience,

KIRISH. Har qanday demokratik davlatda ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta‘minlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ustuvor o‘rin egallaydi. Ular davlat hokimiyatining amaliy ijro etuvchi bo‘g‘ini sifatida fuqarolar kundalik hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim vazifalarni bajaradi [1]. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish kabi vazifalarni samarali amalga oshirishda xodimlarning kasbiy, jangovar, jismoniy va axloqiy-ruhiy fazilatlarini muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyatini modernizatsiya qilish, ularning professional tayyorgarligini oshirish hamda xizmat faoliyatida inson huquqlarini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida “Odamlar ichki ishlar organining har bir xodimida o‘z himoyachisini ko‘rishi kerak” [2] deb, ta‘kidlangan.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyatida vaziyatni qonuniy qaror toptirish uchun kuch ishlatilmaydigan usullar samara bermagan taqdirda Qonun [3] ga





muvofoq jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash vakolati berilgan. Ushbu majburlov choralarining ichida maxsus vositalar boshqa vakolatlarga nisbatan keng spektrga egaligi bilan ajralib turadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqaro huquq shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar (politsiya) organlari xodimlari tomonidan mazkur maxsus vositalar qo'llashda ularning insonga qanday ta'sir etishi bilan birga ularni qo'llash bilan bog'liq xavflarni kamaytirish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu masala bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarning ishlab chiqilishi maxsus vositalaridan oqilona va mutanosib foydalanishga o'zining munosib hissasini qo'shadi. Shu nuqtai nazardan, maxsus vositalarni qo'llashda inson hayoti va sog'lig'iga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni minimallashtirish, ularni qo'llashning aniq mezonlarini belgilash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Metodologiya va adabiyotlar. Mazkur ilmiy maqolani tadqiq qilishda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil va mantiqiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu ilmiy maqolani yozishda maxsus vositalarni qo'llashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar, ularning oqibatlari hamda ularni kamaytirish choralariga oid ilmiy manbalar va normativ-huquqiy hujjatlar tizimli tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy va mantiqiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanilib, xalqaro huquq normalari, xorijiy davlatlar tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi o'zaro solishtirildi.

MUHOKAMA. Hozirda amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, maxsus vositalarni qo'llashda xavflar va ularni kamaytirish choralari haqida gap ketganda, xattoki, mutaxassislar tomonidan ushbu choralarni xavfsizlik choralari bilan bir xil idrok qilish holatlari kuzatilmoqda. Biroq, bu ikkisinin o'rtasida muhim farq bor. Xavflar va ularni kamaytirish choralari deganda, maxsus vositani qo'llash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar va ularni minimallashtirish usullarini tushuniladi. Masalan, insonga ortiqcha tan jarohati yetkazish xavfi, hayotiy muhim a'zolarga zarba berish ehtimoli, atrofdagi shaxslarga tasodifiy zarar yetkazish xavfi, kamaytirish choralari esa, faqat ruxsat etilgan tana qismlariga zarba berish, kuch ishlatishning mutanosibligini saqlash, vaziyatni to'g'ri baholash kabilar kiradi. Maxsus vositani qo'llashda xavfsizlik choralari deganda esa, maxsus vositalarni qo'llash jarayonida xodim va atrofdagilar xavfsizligini ta'minlash qoidalari tushunilishi lozim. Masalan, rezina tayoqni to'g'ri ushlash va qo'llash texnikasi, xizmatdoshlar yoki fuqarolarga tasodifan zarba bermaslik, maxsus vositalarni qo'llashda kombinatsiya bilan birga qo'llashda ehtiyot choralariga rioya qilish kabilar kiradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, xavf va uni kamaytirish bu – natijada kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirishga qaratilgan. Xavfsizlik choralari esa maxsus vositani qo'llash jarayonida xavfsizlikni ta'minlash qoidalaridir.

Xalqaro huquqqa nazar solsak, qonuniylik prinsipiga muvofiq, maxsus vositalari qo'llanilishidan oldin tegishli tarzda sinovdan o'tkazilishi, belgilangan tartibda ruxsat etilishi va huquqni muhofaza qilish organlari ular bo'yicha me'yoriy hujjatlar yoki boshqa vakolatli ko'rsatmalar ishlab chiqishi lozim, deya belgilab o'tilgan. Shuningdek, maxsus vositasini o'zgartirish, masalan, rezina tayoqqa metall tugma o'rnatib uni kuchaytirish, tayoqning og'irligini oshirish va shunga o'xshash harakatlar qat'iyon taqiqlanishi lozim. Ayrim mamlakatlarda maxsus vositalar xodimlarga uzoq muddatga





berilishi odatiy hol bo'lganligi sababli, ular muntazam ravishda tekshirilib, o'zgartirilmaganligi va belgilangan maqsadga muvofiqligi aniqlanib turilishi shart [4].

Muhim jihat shundan iboratki, ichki ishlar organlari xodimlari maxsus vositani qo'llashga murojaat etayotganlarida doimo quyidagilarni amalga oshirishlari lozim: vaziyatni baholash, maxsus vositani qo'llash zarurmi yoki maqsadga erishishning boshqa yo'li mavjudmi, shuni aniqlash, maksimal darajada maxsus vositani qo'llashga qanchalik ruxsat berilishini belgilash, maqsadga erishish uchun maxsus vositani eng kam darajadagi qo'llash imkoniyatini aniqlash, agar boshqa amaliy imkoniyat mavjud bo'lmasagina, maxsus vositani qo'llash, vaziyatni qayta baholab, kuchni qayta qo'llash yoki uni kuchaytirish yoki kamaytirish haqida qaror qabul qilish.

Har bir maxsus vosita o'ziga xos afzalliklar va xatarlarni o'zida mujassam etadi, shu bois xatarlarni imkon qadar kamaytirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, maxsus vositalarni qo'llash faqat ularni qo'llash bo'yicha yetarli tayyorgarlikdan o'tilgan bo'lsa va muntazam ravishda qayta tayyorlash mashg'ulotlari bilan mustahkamlangan taqdirdagina ruxsat etilishi kerak. Yuqorida keltirilgan tartibotlar xalqaro huquqda maxsus vositalarni qo'llashda o'ziga xoslikni namoyon etib, quyida maxsus vositalarning spetsifik xususiyatidan kelib chiqqan holda atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Rezina tayoq – bu asosan odamni ushlab turish, cheklash, turtish yoki urish uchun mo'ljallangan tayoq bo'lib, ba'zan uning asosiy asosiga to'g'ri burchak ostida joylashgan qo'l tutqichi ham bo'ladi. Odatda u inson tanasining yirik mushak guruhlari joylashgan oyoq-qo'llarga nisbatan qo'llaniladi. Rezina tayoq maxsus vosita sifatida bir nechta asosiy funksiyaga ega:

- Vakolat ramzi sifatida — ichki ishlar (politsiya) xodimiga qonuniylik va vakolat beradi hamda kuch qo'llash salohiyatini bildiradi.
- Mudofaa vositasi sifatida — o'zining to'sish qobiliyati tufayli politsiya yoki boshqa shaxslarni jismoniy tajovuzdan himoya qilish uchun qo'llanilishi mumkin. Rezina tayoqni qo'lda ushlashning o'zi ham ehtimoliy tajovuzchiga nisbatan ichki ishlar (politsiya) ning qanday javob qaytarishini aniq ko'rsatib, zo'ravonlikni davom ettirishdan qaytaruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin [5].
- Majburiy chora sifatida — shaxsni bo'ysundirish, nazorat ostiga olish yoki qurolsizlantirish maqsadida qo'llaniladi. Masalan, rezina tayoq yordamida shaxsning qo'lini bloklab qo'yish orqali uni qo'lga olish mumkin.
- Majburlash vositasi sifatida — shaxsni ichki ishlar organi xodimi istagan joyga o'tishga majburlash uchun ishlatilishi mumkin (masalan, maxsus ushlash yoki burash texnikasi orqali).

Rezina tayoqning turli funksiyalari mavjudligi sababli, uni qo'llash bo'yicha maxsus tayyorgarlik ichki ishlar organlarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu tayyorgarlik xodimlarga huquqni muhofaza qilish maqsadi va mavjud tahdid darajasiga qarab kuchni farqlab qo'llash imkonini beradi. Rezina tayoq to'g'ri ishlatilganda o'limga olib keluvchi vosita sifatida ko'rilmaydi. Xavflar va ularni kamaytirish choralar xususida so'z yuritadigan bo'lsak, rezina tayoq va shunga o'xshash vositalarni qo'llashda agarda zarbalar bosh yoki boshqa sezgir tana qismlariga qaratilsa, bosh miya jarohati yoki o'limga olib kelishi mumkin [6]. Shuningdek, Shimoliy Irlandiya Politsiya Xizmati





(PSNI) qo'llanmasida shunday qayd etiladi: "Rezina tayoqni qo'llashning har qanday holati odamga jarohat yetkazish yoki mol-mulkni shikastlash xavfini o'zida mujassam etadi. Shuning uchun, politsiya xodimi dubinkadan foydalangan har bir vaziyatda o'z harakatlarining qonuniyligi, zarurati va mutanosibligini asoslab berishi shart." [7]. 2003-yilda Shimoliy Irlandiya Politsiya Ombudsmani rezina tayoqni qo'llash amaliyotini baholab chiqdi va xususan quyidagi tavsiyalarni berdi:

- Tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirish,
- qayta tayyorlash (refresher training)ni muntazam o'tkazish,
- kuch qo'llashning barcha holatlarini izchil va to'liq qayd etishni yaxshilash [8].

Qo'l kishanlari yoki boshqa bog'lash vositalari butun dunyoda qo'llaniladigan majburlov vositasi bo'lib, odatda qochib ketish xavfi mavjud yoki xavf tug'dirayotgan shaxsni nazorat qilish uchun qo'llaniladi. Ular joriy etilganidan buyon sezilarli darajada o'zgarmagan. Ular shaxsning qo'llarini oldindan yoki orqadan, kaftlari tashqariga qaratilgan holda bog'lash uchun qo'llaniladi. Ba'zi turdagi kishanlar "ikki martalik qulflash" mexanizmi bo'lmasa, ularni yechishga urinish vaqtida tobora qattiqroq siqila boradi, boshqa turlari esa fiksatsiyalangan bo'ladi. Qo'l kishanlari va boshqa bog'lash vositalarining xatarlari va ularni kamaytirish choralari haqida gap ketganda, amaliyotda eng maqbul yo'l sifatida faqat ikki martalik qulflash (double lock) imkoniyatiga ega bo'lgan kishanlarni qo'llash tavsiya etiladi. Bu usul kishanlarning ortiqcha siqilib ketishining oldini oladi. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan kishanlardan shaxsni boshqa bir shaxsga yoki biror narsaga kishanlash maqsadida foydalanish mumkin emas.

Qo'l kishanlari yoki boshqa majburlov vositalaridan hech qachon faqatgina jazolash maqsadida foydalanish mumkin emas, shuningdek, ularni zarur bo'lgan muddatdan ortiq vaqt davomida saqlash ham mumkin emas. Agar shaxs hech qanday xavf tug'dirmayotgan yoki qochib ketish ehtimoli qolmagan vaziyatga tushgan bo'lsa, u holda kishanlar yechib tashlanishi lozim. Ba'zi mamlakatlarda hibsga olish chog'ida yoki hibsga olinganni tashish vaqtida kishanlardan foydalanish doimiy amaliyot bo'lib kelgan, shaxsning real xavf tug'dirishi-tug'dirmasligidan qat'i nazar. Biroq kishan qo'llash har doim ham majburiy emas, va bu shaxsga ortiqcha noqulaylik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun kishanlardan foydalanish faqatgina gumondor qochib ketishi mumkinligi yoki huquqni muhofaza qiluvchi xodim yoki boshqa shaxslarga nisbatan zo'ravonlik ishlatishi ehtimoli mavjud bo'lgan hollarda qo'llanishi lozim [9].

Qo'l kishanlari qo'llanganda shaxsning ahvoli doimiy nazorat qilinishi lozim, shunda jarohat yetkazish yoki o'lim xavfi oldi olinadi [10]. Kishanlar zarurat tugamagan taqdirda darhol yechib tashlanishi shart. Odatda shaxs xavfsiz saqlash joyiga yetkazilgach, qo'l kishanlari olib tashlanadi.

Elektroshok qurilmalari turli shakllarda bo'lib, ularning yangi turlari doimiy ravishda ishlab chiqilmoqda. Bunga elektroshok qurilmalari, qalqonlar, kamarlar va tayoqlar kiradi. Elektroshok qurilmalarining qo'llanilishi keskin ravishda kengaydi va hozirda dunyodagi barcha davlatlarning yarmidan ko'pida ularning ma'lum bir turi qo'llanilmoqda [11].

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun eng ko'p qo'llaniladigan elektroshok vositasi — bu **tazer** bo'lib, u: "qo'lda ushlanadigan elektron shok quroli bo'lib, 7 metr masofagacha ikki dona ilmoqsimon (tishli) ignalarni otishi mumkin. Ushbu ignalar simlar





orqali qurolga ulangan holda qoladi. Baliq ilgagi shaklidagi ignalar mo'ljaldagi shaxsning kiyimi yoki terisiga 2 dyumgacha kirib borishi va izolyatsiyalangan mis simlar orqali yuqori voltli, past amperli elektroshok uzatishi uchun mo'ljallangan" [12].

Bu elektroshok qurilmasi bir martalik kartridjni otish uchun mo'ljallangan (so'nggi ishlab chiqilgan yangi modellari ikki marotaba otishi mumkin) bo'lib, elektr toki orqali shaxsning tanasining neyromuskulyar tizimiga vaqtinchalik ta'sir qilib, uni faoliyatdan chiqarish uchun yaratilgan. Qurilma elektr zarbasini 5 soniyalik siklda uzatadi, bu siklni to'xtatish, uzaytirish yoki takrorlash mumkin [13]. O'zbekiston ichki ishlar organlarining elektroshok qurilmasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomasida esa elektroshok qurilmasini 3 sekundgacha qo'llashga ruxsat etilgan.

Elektroshok qurilmalarini qo'llashda xavflar va ularni kamaytirish yo'llari xususida fikr yuritadigan bo'lsak, ignalarning tanaga kirib ketishidan kelib chiqadigan jarohatlar asosiy xavfni keltirib chiqaradi. Bu ayniqsa ozg'in yoki ingichka gavdali shaxslarda va bolalarda ichki organlarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin [14]. Ignalarning teriga kirib ketishidan paydo bo'ladigan teshilish jarohatlari ham uchrab turadi va ular bosh, bo'yin, ko'z yoki jinsiy a'zolariga tegib ketsa ayniqsa jiddiy bo'lishi mumkin. Shuningdek, elektroshok qurilmasi (tazer) qo'llanilganidan so'ng yurak to'xtab qolishi va natijada qurbonning o'limi holatlari ham kuzatilgan [15]. Qo'llashning ayrim usullari xavfni yanada oshiradi, xususan ko'krak qismiga to'g'ridan-to'g'ri zarba berish va bir necha marotaba yoki takroriy zarba berish hollarini misol qilish mumkin.

Elektroshok qurilmalarini qo'llashdagi asosiy qiyinchilik shundaki, ichki ishlar organlari xodimlari ular kimga qarshi qo'llayotganligini hisobga olgan holda elektr tokining to'liq ta'sirini oldindan aytib bera olmaydi. Qurilmaning zararli ta'siridan yuqori xavf ostida bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar qatoriga giyohvand moddalar ta'sirida bo'lganlar, shiddatli qarshilik ko'rsatganlar yoki boshqa xavf omillariga ega bo'lganlar kiradi. Bu esa elektroshok qurilmasi hech qachon qo'llanilmasigi kerak degani emas, balki uni qo'llashda qo'shimcha ehtiyotkorlik zarurligini anglatadi. Shuningdek, ta'sir o'ta zararli yoki hatto qaytarib bo'lmas bo'lishi mumkinligi sababli, darhol tibbiy yordam ko'rsatilib, shaxsning ahvoli baholanmog'i lozim [16].

Yillar davomida elektroshok qurilmasi (tazer) ning qo'llanilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan, shuningdek, milliy sud amaliyotida ham elektroshok qurilmalari (tazer)ni qo'llash bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan [17]. Ayrim hollarda elektroshok qurilmasi (tazer) mas'uliyatsiz tarzda — masalan, transport vositasini boshqarayotgan shaxsga yoki baland binoda turgan kishiga, ruhiy salomatlik muammolari yoki boshqa sog'liq muammolariga ega odamlarga, hamda odatda qalampir purkagich bilan birgalikda qo'llanganligi aniqlangan. Sud amaliyotida shuningdek, elektroshok qurilmasi (tazer)ning bir shaxsga bir necha marotaba — ba'zan olti yoki yetti martagacha — qo'llangan holatlar ham qayd etilgan. Bunday vaziyatlarda kuch ishlatishni davom ettirish uchun qonuniy asos bo'lmagan. [18] Aslida, biror shaxsga ikki martadan ortiq elektroshok qurilmasini qo'llash qurilma ishlamayotganini yoki ushbu shaxsga nisbatan samarali emasligini ko'rsatishi mumkin. Bunday hollarda kuch ishlatishning boshqa variantlari ko'rib chiqilishi lozim [19]. Huquqni muhofaza qiluvchi xodim elektroshok qurilmasini qo'llagan bo'lsa, nafaqat uning dastlabki qo'llanishini,





balki har bir keyingi qo'llanishini ham asoslay olishi kerak, chunki har bir zarba zaruriyat va mutanosiblik mezonlariga javob berishi shart.

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur maxsus vositalarni qo'llashda xalqaro tajriba katta hajmdagi jarayonlarni tadqiq etgan va milliy qonunchiligimizga nisbatan kattaroq qamrovga ega.

NATIJA. Mazkur ilmiy maqolani tadqiq etishda shu ma'lum bo'ldiki, maxsus vositalarni qo'llashda xavflar va ularni kamaytirish bo'yicha tartibotlar ichki ishlar organlar faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, hozirda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunda ham Ichki ishlar vazirligining idoraviy-normativ hujjatlarida ham xavf va ularni kamaytirish bo'yicha batafsil belgilangan tartibotlar mavjud emas. Milliy qonunchiligimiz asosan, insonning qaysi tana qismlariga qo'llashning taqiqlanishi, qo'llash taqiqlangan guruhlar va ularni qo'llashda xavfsizlik choralari bilangina cheklangan. Fikrimizcha, Ichki ishlar vazirligining idoraviy-normativ hujjatlarida maxsus vositalarni qo'llashda "Xavf va ularni kamaytirish" nomli institutni joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu taklif orqali ichki ishlar organlari tomonidan maxsus vositalarni qo'llashda qonuniylik va mutanosiblik darajasi ortadi. Zero, Bosh Qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida "Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak" [20], – deya belgilangan.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ichki ishlar organlari tomonidan maxsus vositalarni qo'llash jarayonida xavflarni baholash va ularni kamaytirish masalasi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda kuch qo'llashning qonuniyligi va mutanosibligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribada maxsus vositalarni qo'llash jarayonida ehtimoliy xavflarni oldindan baholash, ularni minimallashtirish hamda xodimlarning tayyorgarligini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi aniqlangan. Shu bois Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ hujjatlarida maxsus vositalarni qo'llashda "xavflar va ularni kamaytirish" institutini joriy etish maxsus vositalarni qo'llash jarayonida qonuniylik, zarurat va mutanosiblik tamoyillarini yanada samarali ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ichki ishlar organlarining majburiyatlari va huquqlarining o'ziga xos jihatlari / Maqola / M.Ummatov – Elektron resurs – Rejim kirish: <https://cyberleninka.ru/article/n/ichki-ishlar-organlarining-majburiyatlari-va-huquqlarining-o-ziga-xos-jihatlari/viewer> (murojaat qilingan sana 05.03.2026-yil);
2. Prezident — IIV xodimlari: «Odamlar ishonchini qaytarish kerak» / Maqola / Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.gazeta.uz/oz/2017/08/18/iiv/> (murojaat qilingan sana 05.03.2026-yil);
3. 2016-yil 16-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni – Elektron resurs – Rejim kirish: <https://lex.uz/acts/-3027843> (murojaat qilingan sana 05.03.2026-yil);
4. Resource book on the use of force and firearms in law enforcement – Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.ohchr.org/en/publications/policy-and-methodological->





publications/resource-book-use-force-and-firearms-law (murojaat qilangan sana 06.03.2026-yil);

5. See PSNI Manual of Policy Procedure and Guidance on Conflict Management, chapter 5: Batons;

6. Amnesty International and Omega Research Foundation, The human rights impact of less lethal weapons and other law enforcement equipment, 2015, p. 16, available from: https://www.amnestyusa.org/sites/default/files/human_rights_impact_less_lethal_weapons_doha_paper.pdf;

7. See PSNI Manual of Policy Procedure and Guidance on Conflict Management, chapter 5: Batons;

8. See Office of the Ombudsman for Northern Ireland, Research report 02/2003, March 2003: <http://cain.ulst.ac.uk/issues/police/ombudsman/po03report2.pdf>;

9. See PSNI Manual of Policy, Procedure and Guidance on Conflict Management, chapter 6: Handcuffs;

10. See ACPO Guidance on the Use Of Handcuffs, 2009: <http://www.npcc.police.uk/documents/FoI%20publication/Disclosure%20Logs/Uniformed%20Operations%20FOI/2013/003%20Att%2015%20of%2015%20Guidance%20on%20the%20Use%20of%20Handcuffs.pdf>;

